

---

## Yurtimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi Rishton tumanida ham "Prezident archasi" bayram tadbiri bo'lib o'tdi

Bayram tadbiri shukuhli va esda qolarli voqealarga boy bo'ldi. Tuman markaziy istirohat bog'ida tashkil etilgan Prezident archasi bayram tadbiriga maktab va bog'chalar, mahallalardan bolajonlar taklif etildi.

Tadbir Qorboboyu Qorqizlar paradi bilan boshlandi. Maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Qorbobo, Qorqiz, ertak qahramonlari bayram kontsert dasturida bolajonlar bilan birga qo'shiq kuylab, raqslarga tushishdi.

Tuman hokimi o'rinbosarlari, mutassadi rahbarlar bayram tadbirida qatnashib, o'tayotgan yilda erishilgan yutuqlarga to'xtalib, ishtirokchilarni, ular orqali oila a'zolarini kirib kelayotgan yangi 2025 yil bilan qutlashdi.

Tadbirda kelgan bolajonlarga "Prezident sovg'a"lari ulashildi. Bayram tadbirida qorbobo va qorqizning chiqishlari, ertak qahramonlari ishtirokida tashkil etilgan sahna ko'rinishlari, taniqli xonanda Valijon Qodirov, tumanimizning iste'dodli san'atkorlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar yig'ilganlarga manzur bo'ldi. Markaziy istirohat bog'ida bayram tadbirlari 5 yanvargacha davom etadi.

2024-12-27 13:31:31